

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi bandlik siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini taraqqiy ettirishni yo'nalishlari, shuningdek, bu jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish va rivojlantirishga to'siq bo'layotgan omillar va ularni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan. Bundan tashqari maqolada Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari, 2011-2023-yillarda viloyat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilinganlar, talabalar va bitiruvchilar soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar keltirildi, 2023–2030-yillarda Qashqadaryo viloyati mehnat bozorining tarmoqlar va sohalar bo'yicha OTMLari bitiruvchilari – yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari prognozlashtirildi, "Sanoat" tarmog'i bo'yicha Qashqadaryo viloyat korxona va tashkilotlarining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarining OTMLari bitiruvchi bakalavrlariga nisbati ko'rsatkichi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: korxona, tashkilot, kadrlar, oliy ta'lim, integratsiya, mehnat bozori, bitiruvchi, ta'lim tizimi, kasb, mutaxassislik, inson resurslari, ta'lim standartlari, samaradorlik, sifat, ehtiyoj, talab, mehnat resurslari, ish beruvchilar, bakalavriyat, magistratura, bilimlar, texnologiya, hududlar.

Аннотация: ально-экономического развития регионов страны, направления развития процессов подготовки высококвалифицированных кадров на основе интеграции высшего образования и рынка труда, а также описаны препятствия на пути совершенствования и развития факторов управления этими процессами и пути их устранения. Кроме того, в статье представлены основные показатели высших учебных заведений Кашкадарьинской области, статистические данные о количестве студентов и выпускников, принятых в высшие учебные заведения области в 2011-2023 гг., и в 2023-2030 гг. Спрогнозированы потребности рынка труда Кашкадарьинской области в выпускниках высших учебных заведений - высококвалифицированных кадрах по отраслям и сферам, в сети "Саноат" проанализированы данные о соотношении потребности в высококвалифицированных кадрах предприятий и организаций Кашкадарьинской области к выпускникам высших учебных заведений. В данной статье формирование и реализация политики занятости, согласующей направления соци

Ключевые слова: ПИИ, инновации, патенты, исследователи, Республика Корея, регрессия, корреляция.

Abstract: In this article, the formation and implementation of the employment policy coordinating the directions of socio-economic development of the regions of the country, the directions for the development of the processes of training highly qualified personnel based on the integration of higher education and the labor market, as well as the obstacles to the improvement and development of the management of these processes factors and ways to eliminate them are described. In addition, the article presents the main indicators of higher education institutions of Kashkadarya region, statistics on the number of students and graduates admitted to higher education institutions of the region in 2011-2023, and in 2023-2030. The labor market of Kashkadarya region has forecasted the needs of graduates of higher education institutions - highly qualified personnel by branches and sectors, the ratio of the needs of enterprises and organizations of Kashkadarya region for highly qualified personnel to graduates of higher educational institutions according to the "Industry" network information about was analyzed.

Key words: FDI, innovation, patents, researchers, Republic of Korea, regression, correlation.

enterprise, organization, personnel, higher education, integration, labor market, graduate, education system, profession, specialization, human resources, educational standards, efficiency, quality, need, demand, labor resources, job data, bachelor's degree, master's degree, knowledge, technology, regions.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarorida ^[4] oliy ta'lim tizimida uchraydigan ayrim muammolar, shu jumladan, mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlari hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalar to'liq yechimini topmaganligi, talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalari o'tkazish samarali tashkil etilmaganligi natijasida bitiruvchilarning aksariyat qismi tayyor mutaxassis bo'lib chiqish o'rniga, ishga joylashgandan keyin qaytadan o'z kasbini, mutaxassisligini o'rganayotganligi, shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmi zamonaviy talablarga javob bermasligi, ta'lim muassasalarida malakali pedagog va boshqaruv kadrlarining yetishmasligi, xorijiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi, shuningdek, iqtisodiyot sohalarining istiqbolda kadrlar tayyorlashga buyurtmalarini shakllantirish, bitiruvchilarga qo'yiladigan malakaviy talablarni ishlab chiqish, tarmoqqa zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash sifatini ta'minlash jarayonidagi ishtiroki talabga javob bermayotganligi, oliy ta'lim dasturlarining o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga hamohangligini ta'minlash uchun ish beruvchilar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmayotganligi ko'rsatib o'tilgan. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talablarini aks ettiruvchi bandlik siyosatini shakllantirish va amalga oshirish sohasida keng vakolatlar berilishi bilan integratsiya jarayonlarini faollashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi maqsadga muvofiq. Bu iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy vositalardan foydalanish bilan tavsiflangan ko'plab mexanizmlarni shakllantirishda o'z ifodasini topadi.

Oliy ta'lim va mintaqaviy mehnat bozorining davlat tomonidan tartibga solinadigan va maqsadsiz (stixiyali) integratsiya jarayonlarida mintaqaning ishlab chiqarish majmualarini zarur miqdorda va talab etiladigan sifatda ishchi kuchi bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun uning subyektlarini jalb qilishning turli shakllarini va ularning o'zaro ta'sirini talab etadi.

Oliy ta'lim va mehnat bozorini integratsiya qilish mexanizmlarini ochib berish O'zbekiston Respublikasida hududidan qat'iy nazar turli viloyatlarda, hudud (tuman)lar miqyosida, shu jumladan Qashqadaryo viloyatida, mahalliy va turli darajadagi integratsiya jarayonlari texnologiyalarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu o'z navbatida, mikrodarajada, ya'ni o'zaro hamkorlik va muvofiqlashtirish bevosita amalga oshiriladigan tashkilot va korxonalar darajasida individual ish beruvchining o'z xodimlari bilan manfaatlari va mehnat unumdorligining o'sishida bevosita aks etadi. Shunga ko'ra kun tartibida qo'yilgan masala dolzarb va uning yechimlari yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasida, shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida korxona va tashkilotlarning kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirishda, amaldagi qonunlar, Prezident hujjatlarida ^[1-10] tegishli ko'rsatmalar va vazifalar belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahliliga ko'ra, ish beruvchilar o'z hamkorlariga har doim ham haqiqiy ma'lumotlarni taqdim etishni xohlashmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri, ularning ayrimlari kompaniyaning bozordagi mavqeining beqarorligi bilan izohlanadi. Bunda korxonalar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik mavjud bo'lmaydi. Zero, har doim har bir integratsiya ishtirokchisiga ishonchli, mas'uliyatli va tashabbuskor hamkor zarurdir.

Oliy ta'lim bilan mintaqaviy mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning zamonaviy shakllarini izlash zarurati hozirgi davrda professional ta'lim tizimining ko'plab bitiruvchilari zamonaviy ishlab chiqarish tomonidan e'tiborsiz qolayotganligi bilan bog'liq. Misol tariqasida, "Rossiyada 2006-2010 yillarda ta'limni rivojlantirish bo'yicha Federal maqsadli dastur konsepsiyasida oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining 25 foizi va o'rta maxsus o'quv yurtlari bitiruvchilarining 30 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirilmagan. Ta'lim bo'yicha Federal agentlik ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya universitetlarining atigi 15-20 foizi mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlaydi" ^[12]. Maqolada kadrlarga bo'lgan ehtiyoj masalasiga e'tibor qaratilgan. Vaholanki, mehnatga bo'lgan ehtiyojni prognozlashtirishni tashkil etish murakkab vazifadir. Bu masalada rossiyalik boshqa olimning fikricha, "Mintaqaviy mehnat bozori faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ehtiyoj masalasi yangi muammolarni keltirib chiqardi" ^[13].

Inson resurslari sifatiga qo'yiladigan talablar joriy etilishining muhim yo'nalishi sifatida Rossiyada Malaka oshirish milliy agentligi (NAPK) tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash, kasblar (yo'nalishlar, mutaxassisliklar, ixtisosliklar) tasniflagichini yangilash;



- kasbiy va ta'lim standartlarini o'zaro muvofiqlashtirish, oliy ta'lim tizimidagi kasblar va mutaxassisliklar ro'yxatini muvofiqlashtirish bo'yicha ta'lim sohasi bilan o'zaro hamkorlik;
- milliy malaka tuzilmalarini xalqaro tizimlar bilan muvofiqlashtirish;
- xodimlarni sertifikatlashtirish tizimini shakllantirish, sertifikatlashtirish markazlarini yaratish ^[14].

Gerasimova G.ning "Bu amaliyot bir qator mamlakatlarda keng tarqalgan. Xususan, Germaniyada yetakchi korxonalar davlat ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va keyinchalik o'zlarining korxona va firmalarida ishlab berish shartini qo'ymasdan, ishchi kuchini tayyorlash uchun pul to'laydilar ^[11] degan fikrini oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida malakali kadrlar tayyorlash shartnomalarida yuqori malakali kadrlarning o'qishni tugatgach, o'qish xarajatlarini to'lab bergan korxonada majburiy tartibda uch yil ishlab berishi shartiga qarshi fikr sifatida baholash mumkin.

Hozirgi davrda qator rivojlangan (rivojlanayotgan) mamlakatlarda oliy ta'lim bilan mintaqaviy mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning zamonaviy shakllarini izlab topish zarurati professional va oliy ta'lim tizimining ko'plab bitiruvchilari zamonaviy ishlab chiqarish tomonidan tan olinmayotganligi bilan bevosita bog'liqdir, masalan, "oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining 25 foizi va o'rta maxsus o'quv yurtlari bitiruvchilarining 30 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirilmagan. Ta'lim bo'yicha Federal agentlik ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya universitetlarining atigi 15-20 foizi mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlaydi ^[12].

O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida vazirliklar, qo'mitalar, konsern, kompaniya, birlashma, uyushma, aksiyadorlik jaamiyatlari, qo'shma korxona, yirik korxona va tashkilotlarning barcha toifadagi ish beruvchilari, shuningdek tadbirkorlar xodimlarni ishga qabul qilishda va ularni attestatsiyadan o'tkazishda o'z diqqat-e'tiborlarini inson resurslari sifatiga qo'yiladigan talablarni shakllantirishga qaratmoqdalar. Masalan, 2023-yil 1-iyun holatida Qashqadaryo viloyati bo'yicha Internetda e'lon qilingan bo'sh ish o'rinlari tumanlar kesimida 14362 ni tashkil etadi.

Respublika bo'yicha 2022-yil 7-noyabr holatida tashkilotlar soni – 14375 ta; ish so'raganlarning rezyumelari soni – 265792 ta; tanlov ishtirokchilari soni – 1223123 nafar; test sinovida qatnashganlar soni – 483735 nafar; suhbat bosqichida qatnashganlar – 206812 nafar; ishga qabul qilinganlar – 42972 nafarni tashkil etmoqda ^[15].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir hududiy bozor uchun o'ziga xos tashkiliy-uslubiy yondashuvlar va korxonalarning mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojini, ishlab chiqarishning o'rnatilgan va jadal rivojlanayotgan yo'nalishlarini hisobga olish yo'llarini izlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari respublikamizda korxona va tashkilotlar bo'yicha bo'sh ish o'rinlari ma'lumotlari internetda <https://ish.mehnat.uz/> sayti orqali, Davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant ish o'rinlari <https://vacancy.argos.uz/organizations?category=1> sayti orqali berib boriladi. Bu ma'lumotlar ayrim hollarda korxonalardagi haqiqiy holatga ko'p mos kelmaydi. Internet orqali ish izlayotgan yuqori malakali kadr saytda ko'rsatilgan ish o'rnini uchun rahbariyatga murojaat qiladi. Ish beruvchilar noma'lum sabablarga ko'ra ish izlayotgan yuqori malakali kadrlarga turli sabablarni keltirishsa, bu bitiruvchilar yana bandlikka ko'maklashuvchi markazga qaytadan murojaat qilishga majbur bo'lishadi. Zero, hududlarda bitiruvchilarni ishga yo'naltirish vazifalari amalda bandlikka ko'maklashish davlat xizmati tomonidan ham amalga oshirilmoqda. Shuningdek, amalga oshirilgan ishlarning hisobotlari keyinchalik ish beruvchilar so'rovlarining umumlashtirilgan natijalari asosida tuzatiladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqildi. Qashqadaryo viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar soni, oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilinganlar, talabalar va bitiruvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlar statistik ma'lumotlar sifatida qabul qilindi. Ilmiy tadqiqot ishida qiyosiy tahlil, guruhlash, prognozlash, ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

IAKTB tizimi – integratsiya asosida kadrlar tayyorlashni boshqarish (hududlarda mehnat bozori bilan oliy ta'lim xizmatlari bozori o'rtasidagi integratsiya asosida kadrlar tayyorlashni boshqarishda yirik korxonalar majmuasi) – faoliyati raqobatbardoshlik va intellektual rivojlanishning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan inson kapitalini yaratishni rag'batlantirishning aniq konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu faoliyat sohasi ko'p qirrali bo'lib, nafaqat ishchi kuchi va malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda, balki OTMLarida ta'lim standartlari asosida ta'lim sifatini oshirishni ta'minlashda IAKTB tizimining bevosita ishtirokini o'z ichiga oladi, bu ularning hududlardagi ta'lim muassasalarini boshqarishga aralashuvini nazarda tutadi. Bu mohiyatan ta'lim jarayoniga bevosita aralashish va uni takomillashtirish, iqtisodiyotning mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojini to'g'ri qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish demakdir.

Hozirgi vaqtda asosiy muammo faqat oliy ta'lim bilan mehnat bozori integratsiyasi jarayonining yo'naltiruvchi kuchlarining o'zaro ta'siri emas, balki ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini o'zgartiradigan mehnat yo'nalishidagi maqsadli aloqalardir. Bu yuqori malakali kadrlar bilan mehnat munosabatlarining samaradorligi va sifatiga bevosita ta'sir etadi.



Biz IAKTB tizimi samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar to'g'risida to'xtalib o'tishni lozim deb topdik. Hududiy darajada oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining uslubiy ta'minotini yaratishning muvaffaqiyatli yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni prognozlash ishlarini tashkil etish hisoblanadi.

Hududlarda, shu jumladan Qashqadaryo viloyatida ish beruvchi korxonalarning o'rni va roli iqtisodiyotning tarmoq va sohalari, korxona va tashkilotlarda mavjud va ochilishi rejalashtirilayotgan lavozim (kasb, yo'nalish, mutaxassislik) bo'yicha yuqori malakali kadrlarga talab va ehtiyojlar to'g'risida ma'lumotlarni to'plash tartibi va tashkil etilishini takomillashtirish lozim. Bu korxonalarning kengayishi, ixtisoslashuvining o'zgarishi, yangi mahsulotlar tayyorlanishi va xizmatlar ko'rsatilishining boshlanishi va rivojlanishi uchun yangi zamonaviy bilim va texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan kadrlar ishga qabul qilinishi, mavjud kadrlar kasbiy qayta tayyorlanishi uchun xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari ^[16] tahliliga ko'ra, viloyatda mehnat resurslarining soni 2010-yil va 2021-yil 1-yanvar holatlari solishtirilganda, 1493,4 ming kishidan 1808,7 ming kishiga, mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni 1487,9 ming kishidan 1804,7 ming kishiga o'sganligini ko'rsatdi. Umuman olganda 2021-yilda viloyatda iqtisodiy faol aholi soni 1339,5 ming kishi, iqtisodiyotda bandlar soni 1202,5 kishi bo'lgan bir vaqtda ishsizlar soni 137,0 ming kishini tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich tarkibida oliy ma'lumotli kishilar soni ham bor, ammo bu ko'rsatkich o'zgaruvchan xususiyatga ega.

Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim tizimi statistik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2012-yilda bakalavriatda o'qiyotgan talabalar soni 10 408 nafar, 2017-yilda 14 680 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda esa 28 153 nafar (2010-yilga nisbatan 2,7 barobar, 2017-yilga nisbatan 1,92 barobar ko'p)ni, bakalavriat bitiruvchi kadrlariga bo'lgan ehtiyoj 2012-yilda 4 021 nafar, 2017-yilda 6 891 nafar, 2022-yilda esa 10 210 nafar (2012-yilga nisbatan 2,5 barobar, 2017 yilga nisbatan 1,48 barobar ko'p)ni, bakalavriatga qabul qilingan talabalar soni tadqiqot yillarida mos ravishda 2 866 nafarni, 4 096 nafarni va 13 115 nafarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichning o'sish darajasi tadqiqot yillarida mos ravishda 4,58 barobar (2012-yilga nisbatan) va 3,2 barobar (2017 yilga nisbatan) o'sgan. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari soni 2022-yilda 4 096 nafarni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2017-yilda 1,17 barobar (3 456 nafar) va 2012-yilda 1,61 barobar (2 512 nafar) kam bo'lgan (1-jadval).

1-jadval: 2011-2023 yillarda Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kadrlar ehtiyoji, o'qishga qabul qilinganlar, talabalar va bitiruvchilar soni to'g'risida ma'lumot¹

Yillar	Ko'rsatkichlar											
	Talabalar soni (bakalavr)	Talabalar soni (magistr)	Kadrlarga bo'lgan ehtiyoj (bakalavr)	Kadrlarga bo'lgan ehtiyoj (magistr)	bakalavriatga qabul qilingan talabalar soni	magistraturaga qabul qilingan talabalar soni	oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga topshirilgan arizalar	oliy ta'lim tashkilotlarining magistraturasiga topshirilgan arizalar soni	bakalavriatga 100 o'ringa qabul qilingan talabalar	magistraturaga 100 o'ringa qabul qilingan talabalar	Bitiruvchilar soni (bakalavr)	Bitiruvchilar soni (magistr)
2011	11456	128	4021	14	2866	79	25645	242	881	285	3871	64
2012	10408	152	3992	23	2836	118	27639	288	291	225	2512	58
2013	10876	211	3651	36	2868	121	32239	337	1124	279	2467	76
2014	11525	245	5269	51	3169	93	40093	294	1265	316	2711	123
2015	12436	231	5567	48	3161	88	44704	333	1414	378	2856	134
2016	13139	186	6013	69	3177	54	49873	270	1570	500	3015	96
2017	14680	173	6891	71	4096	97	62484	182	1526	350	3456	103
2018	15249	175	7123	76	5072	140	62156	441	1226	315	3774	68
2019	15532	266	7657	80	5875	197	83805	774	1427	393	3795	113
2020	18067	600	8694	168	7541	335	100860	2983	1337	890	3915	163
2021	23768	797	9318	271	10369	619	63389	3701	611	598	4251	284
2022	28153	1438	10210	310	13115	257	77683	458	x	44	4046	519
2023	28818	1012	12231	408	x	x	x	x	x	x	x	x

1 Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari (<https://qashstat.uz/uz/>) asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat ta'lim yo'nalishlariga kadrlar ehtiyoji, o'qishga qabul qilinganlar, talabalar va bitiruvchilar soni to'g'risidagi ma'lumot 1-rasmlarda keltirildi.


Qashqadaryo viloyati korxona va tashkilotlarining tarmoqlar va sohalar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi bakalavr va magistrilariga bo'lgan ehtiyojni prognozlash maqsadida 2022-2023 yillarda korxona va tashkilotlari xabarlariga murojaat qilib, ehtiyojlar soniga ega bo'ldik va bu ma'lumotlarni oliy ta'lim muassasalaridan bitiruvchilar to'g'risida olgan ma'lumotlar bilan muvofiqlashtirdik. Tadqiqot natijasida 2023-2030 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalar bo'yicha yillar kesimida bitiruvchilar va ularga ehtiyojlar soni ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval: Qashqadaryo viloyati korxona va tashkilotlarining tarmoqlar va sohalar bo'yicha OTMLari bitiruvchi bakalavrlariga bo'lgan ehtiyojlarini bashoratlash²

Yillar	Bitiruvchilar soni va ehtiyoj soni	Tarmoqlar va sohalar										
		Sanoat	Qurilish	Qishloq xo'jaligi	Transport	Aloqa	Iqtisodiyot	Huquq	Sog'liqni saqlash	Jismoniy tarbiya va sport	Maorif	San'at va kinemotografiya
1	2	3	4	5		7	8	9	10	11	12	13
2023	Bitiruvchi	769	577	1057	1250	865	1346	769	481	577	1153	288
	Ehtiyoj	248	186	340	402	279	433	248	155	186	371	93
2024	Bitiruvchi	741	555	1018	1204	833	1296	741	463	555	1111	278
	Ehtiyoj	236	177	324	383	265	412	236	147	177	353	88
2025	Bitiruvchi	880	660	1210	1430	990	1540	880	550	660	1320	330
	Ehtiyoj	222	166	305	360	249	388	222	139	166	333	83
2026	Bitiruvchi	1329	997	1827	2159	1495	2326	1329	831	997	1993	498
	Ehtiyoj	213	159	292	345	239	372	213	133	159	319	80
2027	Bitiruvchi	1515	1136	2083	2462	1704	2651	1515	947	1136	2273	568
	Ehtiyoj	182	136	250	295	205	318	182	114	136	273	68
2028	Bitiruvchi	1760	1320	2420	2859	1980	3079	1760	1100	1320	2640	660
	Ehtiyoj	141	105	193	229	158	246	141	88	105	211	53
2029	Bitiruvchi	2056	1542	2827	3341	2313	3598	2056	1285	1542	3084	771
	Ehtiyoj	123	93	170	200	139	216	123	77	93	185	46
2030	Bitiruvchi	2426	1820	3336	3943	2729	4246	2426	1516	1820	3639	910
	Ehtiyoj	97	73	133	158	109	170	97	61	73	146	36
2031	Bitiruvchi	2914	2185	4006	4735	3278	5099	2914	1821	2185	4371	1093
	Ehtiyoj	87	65	120	142	98	153	87	55	65	131	33
2032	bitiruvchi	3118	2338	4287	5066	3507	5456	3118	1949	2338	4677	1169
	Ehtiyoj	64	48	89	105	73	113	64	40	48	97	24

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023 yilda viloyat oliy ta'lim muassasalari bakalvriatini "Sanoat" sohasida 769 nafar kadr bitiradigan bo'lsa, korxona va tashkilotlarning bu kadrlarning esa bu kadrlarning 248 nafari (32 %)ni ishga olishlari mumkin. Qolgan 68 % bitiruvchilar esa ish o'rinlari bo'shashini kutishi, nomutaxassis sifatida boshqa ishga joylashishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi yoki vaqtincha ishsiz yurishiga to'g'ri keladi. 2027 yilda bu tarmoq bitiruvchilari 1515 nafarni, ehtiyoj esa 182 nafar (12 %), 2030 yilda esa bitiruvchilar 2426 nafarni, ehtiyoj esa 97 nafar (4 %)ni tashkil etmoqda. "Sanoat" tarmog'i bo'yicha Qashqadaryo viloyat korxona va tashkilotlarining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarining OTMLari bitiruvchi bakalavrlariga nisbati ko'rsatkichi 2-rasmda keltirildi.

² Qashqadaryo viloyat Statistika boshqarmasi (<https://qashstat.uz/uz/>), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.




2-rasm: “Sanoat” tarmog’i bo’yicha Qashqadaryo viloyat korxona va tashkilotlarining yuqori malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarining OTMLari bitiruvchi bakalavrlariga nisbati ko’rsatkichi³

Tadqiqot (prognozlash) yillarida “Iqtisodiyot” sohasi bitiruvchilar soniga nisbatan yuqori malakali kadrlarga bo’lgan talab va ehtiyojlar soni mos ravishda 32,1 % (2023 yil), 12 % (2027 yil), va 4 % ni (2030 yil) tashkil etmoqda. Bu degan so’z 2023 yil bakalavriat bitiruvchilarining 67,9 % i, 2027 yilda 88 % i, 2030 yilda 96 % i o’z mutaxassisligi bo’yicha birdaniga ishga joylasha olmaydilar. Ishga joylashishning boshqa variantlarini izlashga yoki vaqtinchalik ishsiz yurishga majbur bo’ladilar.

Bizning fikrimizcha, hozirgi davrda korxona va tashkilotlardan tadqiqot yillari (2023, 2027, 2030) uchun yuqori malakali kadrlarga bo’lgan talab va ehtiyojlar soni haqiqatga to’g’ri kelmaydi. Ikkinchidan, hamma korxona va tashkilotlarning yuqori malakali kadrlar ishlaydigan ish o’rinlari band bo’lsa, korxonalarda yangi ish o’rinlari ochilishi uchun ixtisoslashuv yoki yangi mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar ko’rsatish) yo’nalishlarida kengayish rejalashtirilmayotgan bo’lsa, raxbarlar faqat ehtiyojlarni nafaqaga ketuvchilar hisobidan berishlariga to’g’ri keladi. 2-jadval tahlilida iqtisodiyotning “Qurilish”, “Qishloq xo’jaligi”, “Transport”, “Aloqa”, “Huquq”, “Sog’liqni saqlash”, “Maorif”, “San’at va kinomatografiya” tarmoq va sohalarida ham bitiruvchilar soniga nisbatan kadrlarga bo’lgan ehtiyoj juda kamligini ko’rsatmoqda.


Tahlil natijalariga ko’ra, 2023-yilda “Qurilish”da 9 nafar bitiruvchiga 4 ta (44,5 %) ehtiyoj, “Qishloq xo’jaligi”da 9 nafar bitiruvchiga 7 ish o’rni (77,8 %), “Transport”da 13 nafar bitiruvchiga 9 ta ehtiyoj (69,2 %), Aloqada 16 nafar bitiruvchiga 10 ta ehtiyoj (66,7 %), “Iqtisodiyot”da 29 nafar bitiruvchiga 18 ta ehtiyoj (88,9 %), “Sog’liqni saqlash”da 13 bitiruvchiga 13 ish o’rni (92,3 %), “Jismoniy tarbiya va sport”da 15 nafar bitiruvchiga 13 ish o’rni (86,7 %), “Maorif”da 41 nafar bitiruvchiga 35 ish o’rni (85,4 %), “San’at va kinomatografiya”da 10 bitiruvchiga 7 ish o’rni (70 %) ehtiyoj mavjud (2-jadval). 2023 yilda va 2030 yillarda Qashqadaryo viloyati OTMLari bitiruvchilari va mehnat bozorining kadrlarga bo’lgan ehtiyojlari soni to’g’risidagi ma’lumotlar 3-4-rasmlarda keltirildi.



3-rasm: 2023-yilda Qashqadaryo viloyati OTMLari bitiruvchilari va mehnat bozorining kadrlarga bo’lgan ehtiyojlari soni to’g’risidagi ma’lumot⁴

3 Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari (<https://qashstat.uz/uz/>) asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

4 Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari (<https://qashstat.uz/uz/>) asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



4-rasm: 2030-yilda Qashqadaryo viloyati OTMlari bitiruvchilari va mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari soni to'g'risidagi ma'lumot⁵

Tahlil natijalariga ko'ra, 2023-yilda eng yuqori ehtiyoj "Maorifda", ya'ni bitiruvchilar soniga nisbatan 80%, eng kam ehtiyoj "Sanoat"da bo'lgan, ya'ni bitiruvchilarga nisbatan 20%ni tashkil etgan bo'lsa, 2030 yilning prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, eng yuqori ehtiyoj "Sog'liqni saqlash" da, ya'ni bitiruvchilar soniga nisbatan 145%, eng kam ehtiyoj "Sanoat"da bo'lgan, ya'ni bitiruvchilarga nisbatan 31%ni tashkil etdi.

IAKTB tizimi zarur professional standartlarni ishlab chiqish uchun hududlarda ish beruvchilardan OTMlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash yuzasidan haqiqiy buyurtmalar portfelini yaratadi, korxonalar ularga bu standartlarni yaratish va amalga oshirishga ko'maklashadi, OTMlari tomonidan bu korxonalarda zarur ehtiyoj sezilayotgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo'yicha zamonaviy ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fan dasturlarini tayyorlanadi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida mehnatga layoqatli yuqori malakali kadrlarni ishga joylashtirish yuzasidan professional ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy mexanizmlarini ishlab chiqishda ish beruvchilar birlashmalari, hokimiyat organlari va OTMlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning eng samarali va konstruktiv shakli ijtimoiy sheriklikka aylanishi kerak. Bu masala, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalari va mehnat bozori korxona va tashkilotlarining samarali integratsiyasi asosida jamiyat farovonligi uchun mintaqalarda xizmat qilishi rejalashtirilgan OTMlari bitiruvchilari – yuqori malakali kadrlarni boshqarish sifati va samaradorligini oshirish uchun davlat, ish beruvchilar, oliy ta'lim muassasalari va OTMlari bitiruvchilari o'rtasida "Ijtimoiy sherikchilik Konsepsiyasi"ni ishlab chiqish kerak. Bu Konsepsiya mazkur yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan ko'plab muammolarni bartaraf etadi. Ulardan biri ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq. Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda bandlik siyosatini moliyalashtirish, yosh xodimlarni tayyorlash va kasbiy qayta tayyorlash hamda kattalarni qayta tayyorlash masalalari eng dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot tarmoq va sohalarini taraqqiy ettirish uchun korxona va tashkilotlarda oliy ma'lumotli kadrlarga talab mavjudligi bois, hududlarda faoliyat ko'rsatuvchi davlat OTMlarida davlat granti va kontraktatsiya shartnomalari asosida, nodavlat OTMlarida esa faqat to'lov-shartnoma asosida bakalavrlar va magistrlar tayyorlanadi. Ta'limning to'lov-shartnoma turi kunduzgi, sirtqi, kechki va masofaviy turlariga ham tegishli bo'lib, bu

⁵ Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari (<https://qashstat.uz/uz/>) asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



ta'lim muassasalarining bitiruvchilarni ishga yuborish bo'yicha shartnoma munosabatlari tizimidir. Bunda ish beruvchilar, ko'p hollarda o'qish xarajatlarini to'lashni va bitiruvchini ishga olishni o'z zimmlariga olmaydilar. Ammo korxona va tashkilotlar oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, mustahkamlash borasida bevosita moliyaviy-iqtisodiy yordam ko'rsatishlari mumkin. Shu munosabat bilan mazkur tartibni o'zgartirish maqsadga muvofiq, zero, hududlarda faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar OTMlari talabalarining o'qish xarajatlarini to'lab, bitiruvchilarini ishga qabul qilishsa, bu OTM va bitiruvchi uchun muhim hisoblanadi. Korxona uchun esa, sifatli va raqobatbardosh kadrlarni ishga qabul qilish salmoqli ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). O'RQ-637-son. 2020 yil 23 sentyabr. Manba: <https://lex.uz/docs/5013007>;
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-642-son. – Toshkent. – 2020 yil 20 oktabr. Manba: <https://lex.uz/docs/5055690>;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5052-son Qarori. – Toshkent. – 2017 yil 24 may. Manba: <https://lex.uz/docs/3211749>;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori. – Toshkent. 2017 yil 27 iyul. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda. Manba: <https://lex.uz/docs/3286194>;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son Qarori. – Toshkent. – 2018 yil 14 iyul. Manba: <https://lex.uz/docs/3824637>;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolar xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5843-son Farmoni. – Toshkent. – 2019 yil 3 oktyabr. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/4549998?ONDATE=12.02.2021%2000>;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent. – 2019 yil 8 oktyabr. Manba: <https://lex.uz/docs/4545884>;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-2025-yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. PQ-44-son. 2023 yil 3 fevral. Manba: <https://lex.uz/docs/6377444>;
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olib, ish o'rinlarini tashkil etish va kadrlarni tayyorlash davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 877-son Qarori. – Toshkent. – 2017 yil 28 oktyabr. Manba: <https://lex.uz/docs/3397769>;
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60. – Toshkent. – 2022-yil 28 yanvar. Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>
11. Герасимова Г. В центре внимания бизнеса и власти – образование / Промышленник России. – 2006. – № 4-5. – С.7.
12. Лобанова Е.Г. Взаимодействие учреждений профессионального образования с рынком труда / Труд и социальные отношения. – 2008. – №5. – С.155.
13. Реалии и перспективы взаимодействия электротехнической компании в сфере труда: интересы, риски, эффективность / Человек и труд. – 2008. – №3. – С.14.
14. Коршунов С.В. Механизмы и отраслей к формированию содержания подготовки инженеров. – М.,2007. – 84 с. (С.17).
15. <https://vacancy.argos.uz/>
16. <https://www.qashstat.uz/uz/> – Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
17. <https://data.egov.uz/uzbKr/organizations/41> – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

